

ADOLATLI BOSHQARUV KONSEPSIYASINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Obloqulov Islombek Azamat o‘g‘li

Annotatsiya: ushbu ilmiy ishda “Adolatli boshqaruv” (Good Governance) konsepsiyasining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganilgan, shuningdek uning O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Ishda xalqaro tajribalar (BMT, Jahon banki, OECD) va ilg‘or mamlakatlar – Estoniya, Janubiy Koreya va Singapur – raqamli boshqaruv, shaffoflik va fuqarolarning ishtirokini kengaytirish bo‘yicha ilg‘or misollar orqali o‘rganilgan. Shuningdek, Amartya Senning “Development as Freedom” nazariyasi asosida rivojlanish va erkinlik tamoyillari, inson imkoniyatlari va ijtimoiy adolat bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqilgan. Tezisdan O‘zbekistonning “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, Konstitutsiya va “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun doirasida adolatli boshqaruvni tatbiq etish istiqbollari tahlil qilingan. Natijada, adolatli boshqaruvning milliy huquqiy va siyosiy tizimdagi ahamiyati, fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini oshirish va shaffoflikni ta‘minlash orqali huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning samarali mexanizmlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Adolatli boshqaruv (Good Governance), Huquqiy davlat, Fuqarolik jamiyati, Oshkoralik va hisobdorlik, Raqamli boshqaruv, Inson imkoniyatlari (Capabilities), “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, Konstitutsiya va davlat xizmati qonunchiligi

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi g‘oyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu konsepsiya mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishning asosiy siyosiy- huquqiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Uning markazida inson qadri, adolat, ochiqlik va javobgarlikka tayangan boshqaruv tizimini shakllantirish g‘oyasi turadi. Davlat boshqaruvini demokratlashtirish siyosati avvalo **xalq hokimiyatchiligini amalda ta‘minlash, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish** hamda **boshqaruv organlarining fuqarolar oldidagi hisobdorligini kuchaytirishga** qaratilgan. Bu jarayon natijasida davlat idoralari faoliyatida ochiqlik, samaradorlik va ijtimoiy adolat tamoyillari mustahkamlanmoqda. “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va Konstitutsiyaning yangi tahriri mazkur siyosatning huquqiy poydevorini yaratdi. Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e‘tirof etish, jamoatchilik nazorati, ochiq ma‘lumotlar tizimini rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xizmatchilarining mas‘uliyatini oshirishga oid

qoidalar mustahkam o'rin oldi. Fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirish borasida "Mening fikrim" portali, "Ochiq budjet" tizimi, mahalliy kengashlar va jamoatchilik kengashlarining vakolatlari kengaytirilgani muhim natija bo'ldi. Shuningdek, **raqamli boshqaruv** tizimining joriy etilishi davlat xizmatlarini aholiga qulay va oshkora tarzda yetkazishga xizmat qilmoqda.

"Adolatli boshqaruv" yoki "**Good governance**" konsepsiyasi bugungi kunda davlat boshqaruvi nazariyasida eng muhim va global ahamiyat kasb etuvchi tushunchalardan biridir. Ushbu nazariya xalqaro miqyosda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)** hamda **Yevropa Ittifoqi** kabi yirik institutlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda davlatlar uchun samarali boshqaruvning universal modeli sifatida e'tirof etilgan. Konsepsiyaning markazida boshqaruv jarayonida **adolat, oshkoralik, javobgarlik, ishtirokchilik va qonun ustuvorligi** tamoyillari yotadi. Bu g'oya davlat hokimiyatini faqat boshqaruv vositasi sifatida emas, balki **inson huquqlarini himoya qiluvchi va ijtimoiy ishonchni mustahkamlovchi tizim** sifatida ko'radi. Good governance modeli, aslida, iqtisodiy rivojlanish, siyosiy barqarorlik va fuqarolik jamiyatining faolligini bir butun holda ta'minlashni maqsad qiladi. BMT va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro metodologiyalarda adolatli boshqaruvning yetti asosiy yo'nalishi ajratib ko'rsatiladi: **qonun ustuvorligi, shaffoflik, javobgarlik, samaradorlik, inklyuzivlik, korrupsiyaga muvohiqchilik va fuqarolarning faol ishtiroki**. Bu mezonlar bugungi kunda davlatlarning rivojlanish darajasini baholashda muhim ko'rsatkich sifatida qo'llanilmoqda.

Shuningdek, OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Good Governance Indicators" tizimi orqali davlat boshqaruvi sifati, inson huquqlari himoyasi, davlat xizmati etikasi va korrupsiyaga qarshi siyosat darajasi tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqi esa good governance konsepsiyasini o'z a'zolarining siyosiy va iqtisodiy faoliyatida majburiy standart sifatida qo'llaydi. Bugungi kunda ushbu konsepsiya **rivojlanishning yangi modeli** sifatida qabul qilinib, ko'plab mamlakatlarda boshqaruv islohotlarining nazariy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Adolatli boshqaruv g'oyalari O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar aynan shu tamoyillarga — **adolat, ochiqlik, fuqarolarning ishtiroki va javobgarlikka asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishga** yo'naltirilgan.

Adolat va qonun ustuvorligi

Adolat — huquqiy davlatning ma'naviy poydevori, qonun ustuvorligi esa uning huquqiy mexanizmidir. O'zbekiston Konstitutsiyasida "inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat" sifatida e'tirof etilishi adolat tamoyilining davlat siyosatidagi markaziy o'rnini belgilaydi. Qonun ustuvorligi boshqaruvda tenglik va javobgarlikni ta'minlaydi: mansab yoki ijtimoiy mavqedan qat'i nazar, har bir shaxs qonun oldida

barobar bo'ladi. Shu orqali hokimiyat vakolatlarining suiiste'mol qilinishi oldi olinadi va fuqarolarning davlatga ishonchi mustahkamlanadi.

Oshkoralik (Transparency)

Oshkoralik — adolatli boshqaruvning eng muhim sharti. Bu tamoyil davlat organlari faoliyatining ochiqligi, qarorlarning jamoatchilikka yetkazilishi va axborotga erkin kirish huquqini anglatadi. O'zbekiston "Ochiq ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, "Ochiq budget" portali, "Mening fikrim" tizimi orqali boshqaruvda shaffoflikni huquqiy darajada mustahkamladi. Oshkoralik nafaqat korrupsiyaning oldini oladi, balki fuqarolarning davlat qarorlariga nisbatan ishonchini ham oshiradi.

Hisobdorlik (Accountability)

Hisobdorlik — hokimiyat vakillarining o'z faoliyati uchun jamiyat va qonun oldida javob berish majburiyatini bildiradi. O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida bu tamoyil Prezidentning "Xalq deputatlari bilan muloqot" mexanizmi, davlat idoralarining hisobot berish amaliyoti hamda korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyati orqali joriy etilmoqda. Hisobdor boshqaruv fuqarolarga nisbatan mas'uliyatni oshiradi, hokimiyat va xalq o'rtasida o'zaro javobgarlik muvozanatini shakllantiradi.

Fuqarolarning ishtiroki (Participation)

Adolatli boshqaruv faqatgina hukumat faoliyati bilan emas, balki fuqarolarning faol ishtiroki bilan amalga oshadi. Ishtirokchilik — jamiyatning siyosiy ongini yuksaltiradi, qarorlar sifatini oshiradi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi. O'zbekistonda fuqarolarning boshqaruvdagi ishtiroki mahalla tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik kengashlari va onlayn murojaat platformalari orqali kengaymoqda. Bu holat fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Samaradorlik va natijadorlik (Effectiveness and Efficiency)

Bu tamoyil boshqaruv tizimining amaliy qiymatini ifodalaydi. Samaradorlik — davlat resurslaridan oqilona foydalanish, natijadorlik esa aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati bilan o'lchanadi. O'zbekistonda "Raqamli hukumat" tizimining joriy etilishi, elektron davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) va byurokratik tartiblarni qisqartirish siyosati boshqaruv samaradorligini oshirdi. Natijada, fuqarolar uchun qulaylik, vaqt tejallishi va xizmat sifati sezilarli yaxshilandi.

Javobgarlik va halollik (Responsiveness, Integrity)

Javobgarlik — davlat organlarining xalq manfaatlariga tezkor va halol javob bera olishini bildiradi. Halollik esa mansabdor shaxsning axloqiy mas'uliyatini ifodalaydi. O'zbekiston bu yo'nalishda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun, "Etika kodeksi" va Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasi orqali yangi huquqiy asoslarni yaratdi. Halollik madaniyatini rivojlantirish boshqaruvning ishonchliligi va barqarorligini ta'minlaydi.

Inklyuzivlik va teng imkoniyatlar (Equity and Inclusiveness)

Adolatli boshqaruvda barcha fuqarolar — jinsidan, yoshidan, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar — teng huquqlarga ega bo'lishi zarur. Inklyuzivlik tamoyili boshqaruvda hech kimni chetda qoldirmaslik, barcha guruhlarining manfaatini inobatga olishni anglatadi.

O'zbekiston bu borada ayollar va yoshlar siyosati, nogironlar huquqlari to'g'risidagi qonunlar, hamda hududlar rivojlanishida teng imkoniyatlar yaratish dasturlari orqali inklyuziv boshqaruvni rivojlantirmoqda. Bu esa ijtimoiy adolat va barqarorlikni mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar.

Nafaqat O'zbekiston Respublikasi misolida balki, xalqaro miqyosda ham bu jihadlarga juda muhim e'tibor qaratiladi bunga yaqqol misol qilib Jahon bankini ko'rsatish mumkin. Jahon banki — "Worldwide Governance Indicators" (WGI) Bu tizim orqali 200 dan ortiq mamlakatlar bo'yicha hukumat boshqaruvining sifatini olti o'lchov bo'yicha baholash amalga oshiriladi.

Olti o'lchov (dimensiya) quyidagilardan iborat:

Fuqarolarning ovoz berish huquqi va javobgarlik (Voice and Accountability)

Siyosiy barqarorlik va zo'ravonkka qarshi kurash (Political Stability and Absence of Violence)

Hukumat samaradorligi (Government Effectiveness)

Reglament sifatligi (Regulatory Quality)

Qonun ustuvorligi (Rule of Law)

Korrupsiyani nazorat qilish (Control of Corruption)

WGI ma'lumotlari turli ekspert so'rovnomalari, nodavlat tashkilotlar va tahlil institutlari tomonidan olingan manbalarga asoslangan. Ushbu indikatorlar yordamida mamlakatlar boshqaruv tizimlarining sifatini taqqoslash, vaqt davomida o'zgarishini kuzatish va islohotlar samaradorligini tahlil qilish mumkin. OECD tomonidan "Governance Indicators for Development" nomli siyosat hujjati chop etilgan. Bu hujjatda boshqaruvning sifatini o'lchashda — korrupsiya darajasi, reglament tizimi,

qonun ustuvorligi va siyosiy-iqtisodiy barqarorlik kabi ko'rsatkichlar asosiy o'rin egallaydi. OECD bu ko'rsatkichlar asosida davlat boshqaruvi va rivojlanish siyosatini takomillashtirishga yo'naltirilgan tavsiyalar beradi. BMT / UNDP — adolatli boshqaruv konsepsiyasining targ'iboti va baholash mexanizmlari UNDP boshqaruv tizimlarida "inklyuziv, hisobdor va samarali boshqaruv"ni mustahkamlashga qaratilgan. BMT hujjatlarida good governance tamoyillari inson huquqlari, qonun ustuvorligi va demokratiya bilan chambarchas bog'liqligi qayd etilgan. UNDP misolida boshqaruv jarayonlarida fuqarolarning ishtiroki, shaffoflik va davlat xizmatlari sifati muhim ekanligi ta'kidlangan.

Estoniyadagi raqamli boshqaruv tizimi boshqaruv hamda fuqarolik jamiyati bilan o'zaro moslashgan integratsiyalashgan modeldir. Estoniya barcha davlat xizmatlarini onlayn rejimda takomillashtirgan: barcha (100 %) xizmatlar onlayn tarzda taqdim etilishi maqsad qilib qo'yilgan. "Bir marta" tamoyili (once-only principle) joriy etilgan — fuqarolar davlatga ma'lumotni faqat bir marotaba topshiradi, keyin davlat instansiyalari bu ma'lumotdan birinchi undan ortiq so'rab qolmasligi lozim. Fuqarolarning ishtiroki ham raqamli platformalar orqali shakllanmoqda — masalan, Internet ovoz berish (i-Voting) shaklida, onlayn fikr bildirish tizimlari orqali. Shu tarzda, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari ham mustahkamlangan: fuqarolar kim ma'lumotga kirgani, qanday xizmatdan foydalangani ko'ra oladi, ma'lumot almashinuvi tizimi ochiq. Estoniyaning bu modeli boshqaruvni soddalashtirish, byurokraziyani qisqartirish va hukumat hamda fuqarolar o'rtasida ishonch hosil qilishga xizmat qilmoqda. Janubiy Koreya raqamli boshqaruvni davlat qilish jarayonida muhim qismiga aylantirgan. Ayrim jihatlari quyidagicha: Koreya Respublikasi davlat boshqaruvida "Digital Government" tamoyillarini rivojlantirgan bo'lib, masalan, raqamli xizmatlar loyihalashtirilishi, ma'lumot almashinuvi va fuqaro ma'lumotlari boshqaruvi kabi yo'nalishlar belgilangan. Fuqarolarning ishtiroki uchun onlayn platformalar joriy etilgan — masalan, "e-People" portali orqali fuqarolar siyosat, xizmat jarayonlari bo'yicha munozaralar olib borishi, takliflar berishi mumkin. Oshkoralik va xizmatlarning ochiqligi jihatdan, ma'lumot almashinuvi va Internet xizmatlari orqali davlat jarayonlari yengillashtirilgan, korrupsiya risklari kamaytirilgan. Janubiy Koreya modeli raqamli boshqaruv orqali fuqarolarning ishtirokini kengaytirishga, davlat xizmatlarini yanada tez va ochiq qilishga yo'naltirilgan. Singapur "Smart Nation" tamoyili asosida raqamli boshqaruvni keng miqyosda amalga oshirmoqda va fuqarolarni boshqaruv jarayoniga jalb qilishga katta ahamiyat bermoqda. Xususiyatlari: "Citizen Engagement" va "Engagement Programmes" platformalari orqali fuqarolarga davlat xizmatlari va siyosatni birgalikda shakllantirish imkoniyati berilgan. Masalan, platformalarda fuqarolarning beta-versiyalarni sinovdan o'tkazishi, fikr-mulohaza bildirishlari mumkin. "GovTech" agentligi orqali davlat xizmatlari va platformalar fuqarolarning ehtiyojlarini inobatga

olgan holda yaratilmoqda: davlat-fuqaro hamkorligi, foydalanuvchi markazlik tamoyili asosga olingan. Raqamli inklyuzivlik va barcha fuqaro guruhlarining ishtiroki tamoyiliga e'tibor qaratilgan: masalan, "Smart Nation Co-creating with Our People Everywhere (SCOPE)" kampaniyasi orqali turli guruhlar bilan hamkorlikda xizmatlar ishlab chiqilmoqda. Singapur tajribasi boshqaruv jarayonida texnologiyani nafaqat xizmatni avtomatlashtirish, balki fuqarolarning ovozini kuchaytirish, hamkorlik qilish imkonini yaratish vositasi sifatida qo'llashga misoldir.

Taniqli Hind iqtisodchisi va faylasufi Amartya Sen 1998-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan, rivojlanish nazariyasi va ijtimoiy adolat bo'yicha dunyoga taniqli olim. "Development as Freedom" asarida Sen rivojlanishni faqat iqtisodiy o'sish yoki daromad ko'rsatkichlari bilan emas, balki insonlar imkoniyatlari va erkinliklari bilan baholash kerakligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, haqiqiy rivojlanish – bu insonlar o'z hayotlarini tanlash, imkoniyatlardan to'liq foydalana olish va fundamental huquqlarga ega bo'lishidir.

Asarning asosiy mazmuni va unda ilgari suriladigan g'oyalari quyidagicha

Rivojlanish = Erkinlik

Amartya Sen rivojlanishni iqtisodiy o'sish bilan emas, balki inson erkinliklarini kengaytirish bilan bog'laydi. Erkinliklar: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ijtimoiy xavfsizlik erkinliklarini o'z ichiga oladi.

Inson imkoniyatlari (Capabilities) nazariyasi

Rivojlanish shundan iboratki, har bir inson o'z salohiyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Masalan, ta'lim olish, sog'liqni saqlash, siyosiy hayotda ishtirok etish kabi imkoniyatlar asosiy indikator sifatida qaraladi.

Ijtimoiy va iqtisodiy erkinliklar o'zaro bog'liq

Iqtisodiy erkinlik bo'lmasa, boshqa erkinliklarni amalga oshirish qiyin. Shu sababli, iqtisodiy siyosat, ta'lim, sog'liqni saqlash va jamiyat institutlari rivojlanishga to'sqinlik qilmasligi lozim.

Rivojlanish va adolat

Rivojlanish jarayoni inson huquqlari va adolatni mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq. Amartya Sen ta'kidlaydiki, mamlakatning daromadi yuqori bo'lsa ham, agar fuqarolar erkinlikka ega bo'lmasa, u rivojlangan hisoblanmaydi. Yuqoridagi fikrlar asarning qiymatini oshiradi, yanada chuqur ma'noga ega ekanligidan dalolat beradi, bu esa davlat boshqaruvida adolatli, huquqiy davlat va jamiyat tashkil topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Yangi tahrirdagi 2023.
<http://lex.uz/uz/docs/-6445145>

Amartya Sen (2000). *Development as Freedom*. Oxford University Press.

World Bank. (2025). *Worldwide Governance Indicators*.
<https://www.worldbank.org/en/publication/worldwide-governance-indicators>

OECD. (2010). *Governance Indicators for Development*.
https://www.oecd.org/en/publications/governance-indicators-for-development_244762742121.html

United Nations Development Programme (UNDP). (2025). *Good Governance and Development*. <https://www.undp.org/governance>

E-Estonia. (2025). *E-Governance and E-Democracy in Estonia*. <https://e-estonia.com/solutions/e-governance/e-democracy>

Ministry of the Interior, Republic of Korea. (2025). *Digital Government in Korea*. <https://www.mois.go.kr/eng/sub/a03/EGovernment/screen.do>

OECD. (2020). *Digital Government Review of Korea: Strengthening Governance, Investment and Skills for Digital Government*.
https://www.oecd.org/en/publications/digital-government-review-of-korea_9defc197-en/full-report

Smart Nation, Singapore. (2025). *Citizen Engagement Programmes*.
<https://www.smartnation.gov.sg/citizen-engagement/engagement-programmes/smart-nation-engagement-programmes>

GovTech Singapore. (2025). *Our Digital Government Efforts*.
<https://www.tech.gov.sg/our-digital-government-efforts>